

**Qurbonova Sevara**

**Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti 1-bosqich talabasi**

---

## **KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHDA O'ZBEKISTONNING AMALGA OSHIRAYOTGAN SIYOSATLARI**

**Annotatsiya:** So`ngi yillarda xalqaro miqyosda transmilliy jinoyatlardan biri sifatida keng muhokama qilinayotgan korrupsiya muammosi deyarli jahonning har bir davlatida kuzatilmoqda. Butun jamiyatni iskanjaga olayotgan bu millat yil sayin chuqur ildiz otmoqda. Ushbu maqolada O`zbekistonning korrupsiyaga qarshi kurash yo`lidagi say-harakatlari va chora tadbirlari shuningdek ularning natijasi tahlil etiladi.

**Kalit so`zlar:** Korrupsiya, korrupsiyaga qarshi kurashishga oid normativ-hujjatlar, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, “Call-markaz”, Xalqaro korrupsiya reytingi.

---

Korrupsiya lotincha *corrumpo* so`zdan olingan bo`lib, aynish, poraga sotilish degan ma`noni anglatadi. Siyosatda bu ibora mansabdor shaxsning o`z mansab vakolatini bevosita suiste`mol qilgan holda undan o`z shaxsiy manfaatlari yo`lida foydalanish holatiga nisbatan qo`llaniladi. Bugungi kunda butun dunyo miqyosida global muammolardan biriga aylanib ulgurgan korrupsiya hech bir davlatni chetlab o`tgan emas. Ammo bu illatga qarshi kurashda qaysidir davlat unga barham bera olgan bo`lsa, qaysidir davlatlar hali hanuz undan aziyat chekishmoqda.

Mustaqillik yillaridan beri mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurash borasida ko`plab chora-tadbirlar tizimli ravishda amalga oshirilib, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida korrupsiyani keltirib chiqarayotgan omillarga qarshi kurashishga qaratilgan qator normative-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, amaliy hayotga keng tadbiriq etib kelinmoqda.

2020-yil 29-iyunda “O`zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo`yicha qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida”gi O`zbekiston Respublikasi Prezidentining PF 6013-son Farmoni qabul qilinib, mazkur farmon asosida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini shuningdek, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning tizimli sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish choralarining samaradorligini oshirishga qaratilgan davlat va boshqa dasturlarni shakllantirish va amalga oshirish maqsadida Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi. Ushbu Farmonga binoan, korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish, mamlakatda korrupsiya holatini tizimli tahlil qilishni ta`minlash, fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan kompleks dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish jamiyatda korrupsiyaning barcha ko`rinishlariga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizasi samaradorligini ta`minlash, davlat xizmatchilarining daromad va mol-mulkini deklaratsiya qilish tizimini joriy etish kabi va boshqa bir qancha vazifalar Agentlik zimmasiga yuklatildi.

2021-yil 7-dekabrda “O`zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyatini yanada takomillashtirish bo`yicha qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida”gi O`zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-34-son Qarori va ushbu qarorga ilova tarzida “ O`zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining Jamoatchilik nazoratini rivojlantirish jamg`armasi mablag`larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi to`g`risida”gi Nizom qabul qilindi. Qarorga ko`ra korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlarini yanada tezkor va ishonchli tarzda hal qilish maqsadida 2022-yil 1-yanvardan boshlab tun-u kun

faoliyat ko'rsatadigan "Call-markaz" ishga tushurildi. Fuqarolar endilikda o'zlari duch kelgan yoki bevosita guvoh bo'lgan har qanday turdagi korrupsion holatlar haqida hech qanday ovvoragarchiliklarsiz, ortiqcha "yugur-yugur"larsiz to'g'ridan-to'g'ri ushbu "Call-markazga" xabar berishlari mumkin. Shuningdek agentlik rasmiy Anticorruption.uz websaytiga ham ega. Korrupsiyaviy jinoyat alomatlarini mavjudligi to'g'risida jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan Agentlikka xabar kelib tushgan taqdirda, Agentlik jinoyat alomatlarini tasdiqlovchi holatlarni ilova qilgan holda jinoyat ishi qo'zg'atish masalasini hal qilish uchun Bosh prokuraturaga yo'naltiradi.

Korrupsion jinoyatlar og'ir jinoyatlar sirasiga kirib, Qonunchiligimiz bilan qat'iy taqiqlangan va unga nisbatan og'ir jazolar belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 205, 210, 211, 212, 213, 214-moddalarida har qanday turdagi korrupsion holatlar uchun jazo belgilab qo'yilgan. Ushbu jazo choralari yanada takomillashtirish maqsadida 2022-yil 11-may kuni "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksiga korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun javobgarlik muqarrarligini ta'minlashga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi. Qonunga ko'ra, korrupsiyaga oid og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatlarni sodir etgan shaxslar javobgarlikka tortish muddatining o'tib ketganligi ularni javobgarlikdan ozo qilmasligi, pora olish, pora berish, pora olish-berishda vositachilik qilganlik uchun hukm qilingan shaxslar jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilinmasligi bilan bog'liq normalar belgilab qo'yilgan.

2023-yil 27-noyabrda "Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati tizimini samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-200-son Farmoni qabul qilindi. Farmon asosida "O'zbekiston – 2030" strategiyasidan kelib chiqqan holda korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish bo'yicha davlatning istiqbolidagi asosiy yo'nalishlari belgilandi. Korrupsiya kelib chiqishiga sabab bo'lgan omillarni aniqlash va ularni tahlil qilish: amaldagi korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha belgilangan mexanizmlarning samaradorligini va ularni takomillashtirish; jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish ishlarini jadal davom ettirish kabilar Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2030-yilgacha mo'ljallangan milliy strategiya yo'nalishlari sifatida belgilangan.

Bilamizki bugungi kunda dunyo mamlakatlarida korrupsion holatlarni o'rganuvchi xalqaro korrupsiya reyting mavjud. Ushbu reyting 1995-yildan beri faoliyat ko'rsatib kelmoqda va unda qatnashuvchi 180 ta davlatlar ichida O'zbekiston 2020-yilda 146-o'rinni band qilgan bo'lsa, 2021-yilda 140-o'ringa ko'tarildi. 2023-yil holatiga ko'ra esa 31 ball bilan 126- pog'onadan joy egallamoqda. Davlatimizning reyting jadvalida yuqori marralar tomon harakatlanayotganini ko'rishimiz mumkin, ammo bu ko'rsatkich mamlakatimiz hali hamon korrupsiya botg'og'idan chiqmagidan dalolat beradi. Shu o'rinda bir savol tug'uladi, qabul qilinayotgan shuncha Qonunlar, Qarorlar, Farmonlar, boshqa normativ hujjatlar, amalga oshirilayotgan islohotlar, sa'y-harakatlar samaradorligi nega bu darajada past? Huquqiy hujjatlarda kamchiliklar bormi yoki uni amalga oshiruvchilardami?

Aslida bu illatning bu darajada chuqur ildiz otishining sabachilari barchamizdir. Qars ikki qo'ldan chiqadi deganlaridek, korrupsiya balosida faqatgina amaldorlarni ayblashni o'zi noto'g'ri. To'g'ri mansab vakolatidan foydalangan holda manfaati uchun jinoyat sodir etayotgan ular, biroq ularga mansab vakolatidan shaxsiy manfaatlari yo'lida foydalanishga imkon berayotgan aslida bizku. Iqtisodiyotda shunday qonun bor : "Talab bor joyda taklif bo'ladi". Ya'nikim, biz eng avvalo o'sha ehtiyojlarga qarshi kurashishimiz lozim. Ana shunda taklif bildiruvchilar o'z-o'zidan asta-sekin yo'qoladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1) O`zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi.
- 2) O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “O`zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo`yicha qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida”gi PF-6013-son Farmoni – 2020-yil 29-iyun.
- 3) Prezidentining O`zbekiston Respublikasi “O`zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyatini yanada takomillashtirish bo`yicha qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida”gi PQ-34-son Qarori – 2021-yil 7-dekabr.
- 4) “O`zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksiga korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun javobgarlik muqarrarligini ta`minlashga qaratilgan o`zgartirish va qo`shimchalar kiritish to`g`risida”gi O`zbekiston Respublikasi Qonuni – 2022-yil 11-may.
- 5) O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi PF-200-son Farmoni – 2023-yil 27-noyabr.
- 6) [www.Lex.uz](http://www.Lex.uz) – sayti.
- 7) Corruption perceptions index.